

## O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 25-yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi

---



Aziz vatandoshlar!

Mamlakatimizning ko'p asrlik tarixida mutlaqo yangi sahifa ochgan, el-yurtimizni mustabid tuzum kishanlaridan ozod qilib, erkin va farovon hayot qurish yo'lini olib bergan O'zbekiston davlat mustaqilligining 25-yillik bayrami bilan barchangizni, butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklayman.

Qadrli do'stlar!

Barchamizga ayonki, mustaqillik hech qaysi xalq, hech qaysi millat tarixida osonlik bilan qo'lga kiritilgan emas. Bu haqiqatni chuqur anglaydigan xalqimiz shu kurashda fidoyilik ko'rsatgan, qurban bo'lgan ota-bobolarimizning xotirasini qalbida abadiy saqlaydi.

Ayni shu kunlarda o'zini oqlamagan eski tuzumdan yangi tizimga o'tish davrini eslar ekanmiz, boshimizdan kechirgan mashaqqatli kunlar va og'ir sinovlar beixtiyor ko'z o'ngimizdan o'tadi.

Ayniqsa, sobiq tuzum asoratlari tufayli respublikamizda ahvol naqadar xatarli tus olganini avvalo ta'minot masalasi butunlay izdan chiqib, xalqimizni boqish uchun bor-yo'g'i bir hafta-o'n kunga yetadigan un zaxirasi qolgani, tartib-intizom bo'shashib, turli qo'poruvchi va g'alamis kuchlar bosh ko'tarib, yurtimiz deyarli jar yoqasiga kelib qolgani misolida tasavvur qilish qiyin emas.

Ana shunday o'ta tahlikali vaziyatda ham biz o'z tanlagan yo'limizdan – mustaqillik yo'lidan qaytmadik. Chunki biz yaxshi tushunardik – hayot-mamotimiz hal bo'layotgan ayni shunday damlarda qiyinchilik va to'siqlar oldida bo'sh kelish – bu hozirgi va kelajak avlodlar oldida xiyonat qilish bilan barobar bo'lur edi.

Ayni shu paytlarda xalqimiz o'zining qat'iyati va matonatini amalda namoyish etib, O'zbekistonimizning yorug' va buyuk kelajagiga ishonchini yo'qtogani yo'q va inshoollo, hech qachon yo'qotmaydi.

Haqiqatan ham, mustaqillikning birinchi kunlaridanoq, ahvolimiz qanday og'ir va xavf-xatarli bo'lmasin, har qadamda paydo bo'layotgan to'siq va g'ovlarni, turli muammolarni yechish bilan band bo'lishdan qat'i nazar, mamlakatimizning bugungi kuni va istiqboliga javob beradigan, chuqur o'ylangan strategiyamiz ustida ishimizni to'xtatganimiz yo'q.

Biz oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarga erishishda – erkin, demokratik davlat qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, fuqarolik jamiyatini barpo etishda, mamlakatimizni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko'tarish yo'lida shoshma-shosharlik va pala-partish ishlarga yo'l qo'ymadik, jahondagi ilg'or tajribalarini o'rganib, lekin kimdandir ko'r-ko'rona nusxa organimiz yo'q. Bu borada chuqur ma'noga ega bo'lgan "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" degan g'oya asosida el-yurtimizga xos xususiyatlар, shart-sharoitlarga mos bo'lgan, xalqaro maydonda "o'zbek modeli" deb tan olingan, uzoqni ko'zlagan yo'lni o'zimizga ma'qul topdik va uni amalga oshirishga kirishdik.

Biz tanlagan yo'l – mashhur besh prinsipga asoslangan taraqqiyot strategiyasi naqadar to'g'ri ekanini,

og'ir sinovlardan o'tib, mamlakatimiz rivoji uchun mustahkam zamin bo'lib qolganini hayotimizning o'zi isbotlab bermoqda. Buning tasdig'ini mustaqillikka erishganimizning dastlabki kunlardan boshlab eng o'tkir va hal qiluvchi masala – zamon talabiga javob beradigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash vazifasi misolida yaqqol kuzatish mumkin.

Agarki biz 19-yil oldin eski qolip va asoratlardan voz kechib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning uzviy davomi bo'lgan Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturini qabul qilib, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirmasak, buning uchun davlatimiz va butun jamoatchiligidizning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmasak, bugungi ahvolimiz qay darajada bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Hech ikkilanmasdan aytishga barcha asoslarimiz bor – hozirgi kunda litsey va kollejlarni, oliv o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan, hayotga yangicha qaraydigan ming-minglab yoshlarimiz biz uchun, kelajagimiz uchun tog'dek tayanch bo'lib, mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning tashabbuskori va ijrochisi bo'lib maydonga chiqmoqda.

Vatanimizning kelajagi va taqdirini o'z qo'liga olishga qodir bo'lgan bunday yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan dasturlarni o'z vaqtida qabul qilganimiz va davlat siyosati darajasiga ko'targanimiz yangi jamiyat qurishimizda haqiqatan ham hal qiluvchi rol o'yamoqda.

Tarixan qisqa davrda O'zbekiston ilgarigi o'zini boqishga, o'zini himoya qilishga qurbi yetmagan, iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olib, aholining hayot darajasi g'oyat achinarli ahvolga tushib qolgan qoloq respublikadan bugungi kunda tez va barqaror sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan, jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinn egallagan, qudratli davlatga aylanib bormoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotimiz qariyb 6 barobar o'sdi, uning tarkibida sanoatning ulushi 14 foizdan 34 foizga yetdi, jahon miqyosidagi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotganiga qaramasdan, yalpi ichki mahsulotimizning o'sish sur'atlari oxirgi 11-yil davomida kamdan-kam davlatlar qatorida 8 foizdan kam bo'lmasdan kelmoqda. Aytish kerak, 2016-yilning birinchi yarmi yakunlari bo'yicha hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, joriy yilda ham o'sish sur'atlarimiz bundan past bo'lmaydi.

Eng muhimmi, o'tgan davr mobaynida odamlarimizning salomatligi mustahkamlanib, onalar o'limi 3,2 barobar, bolalar o'limi 3,4 barobar kamaygani, o'rtacha umr ko'rish darajasi 66 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida 76 yoshga uzaygani, aholimizning soni 2016-yilning oxirigacha 32 milliondan oshib ketishi, ya'ni mustaqillik yillarida xalqimiz 12 millionga ko'paygani bizning qanday katta yuksalish yo'lini bosib o'tganimizni, el-yurtimizning hayot sifati va farovonligi o'sib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Bularning barchasi avvalo mard va matonatli xalqimizning qahramonona mehnati evaziga amalga oshirilmoqda va mamlakatimiz o'zining barqaror rivojlanish sur'atlari bilan xalqaro jamoatchilikni hayratda qoldirmoqda.

Muhtaram yurtdoshlar!

Barchamiz yaxshi tushunamiz – biz erishayotgan ulkan marra va natijalar ko'zlagan maqsadlarimizning faqat ma'lum bir qismini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan davr, dunyo bozorlarida noaniqlik, beqarorlik va inqiroz davom etayotgani, raqobat kuchayib, shafqatsiz tus olayotgani, xomashyo narxining pasayib borayotgani – bunday holatlar barchamizdan, avvalo, rahbarlik va yetakchi lavozimlarda o'tirgan

shaxslardan eski qarash va yondashuvlardan, ish uslublaridan butunlay voz kechib, yangicha fikrlashni, ishni tashkil qilish va boshqaruva tizimini zamon talablari darajasiga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Eng avvalo, mamlakatimizni demokratik yangilash, modernizatsiya qilish, uning raqobatdoshligini oshirish yo'lida boshlagan islohotlarimizni davom ettirish, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va unda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning ulushini kengaytirish va uning ustuvorligini ta'minlash vazifalari hal qiluvchi o'ren tutishi zarur. Shular qatorida xususiy tadbirdorlik va kichik biznes samarasini oshirish, xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirish, zamonaviy, yuqori texnologiyalarni joriy etish maqsadida mamlakatimizda yaratilgan imtiyozlarni yanada kengaytirish vazifalari doimo e'tiborimiz markazida turishi darkor.

Bugungi kunda yaqin va uzoq atrofimizda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib, turli mojaro va qon to'kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi tobora keskinlashib borayotgani har birimizni tashvishga solmasdan qo'ymaydi va barchamizdan hamisha hushyor va ogoh bo'lib yashashni talab etadi.

Vujudga kelayotgan mana shunday murakkab sharoitda O'zbekistonimizning xavfsizligini, chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash, turli balo-qazolarni ostonamizga yo'latmaslik, yurtimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo hamjihatlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash, "Bizga tinchlik va omonlik kerak" degan ezgu da'vatni barchamizning burchimiz va ustuvor vazifamiz sifatida amalga oshirishimiz zarur.

O'zbekistonda olib borilayotgan tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari sifatida biz boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va paydo bo'layotgan qarama-qarshilik va ziddiyatlarni tinch, siyosiy kelishuvlar yo'li bilan yechish tarafdomiz.

Turli harbiy-siyosiy blok va alyanslarga qo'shilmaslik, yurtimiz hududida chet davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga va harbiylarimizning chegaralarimizdan tashqaridagi hududlarda bo'lishiga yo'il qo'ymaslikni o'zimiz uchun ma'qul, deb bilamiz.

Biz mustaqillik yillarda yaqin va uzoq qo'shnilarimiz bilan o'zaro hurmat, o'zaro manfaatlarni tan olish asosida olib borayotgan aloqalarimizni, avvalo hamkorlik va hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlashga harakat qilib kelganmiz va ayni shunday siyosatni davom ettirishga tayyormiz.

Aziz vatandoshlar!

Shu kunlarda butun xalqimiz Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlarida 4 ta oltin, 2 ta kumush, 7 ta bronza medalini qo'lga kiritib, buyuk g'alabaga erishgan sportchi yoshlарimizni qizg'in qutlamoqda. Dunyodagi 206 ta mamlakatdan kelgan manaman degan sportchilar bilan bo'lgan keskin bellashuvlarda o'g'onlarimizning ko'rsatgan mardligi va fidoyiligi, mahorati va matonati, ona Vatanimizga muhabbat ming-minglab yoshlарimiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'ldi, deb g'urur va iftixor bilan baralla aytishga barchamiz haqlimiz.

Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib, O'zbekiston yoshlарining dunyoda hech kimdan kam emasligini butun jahonga namoyish etgan mohir sportchilarimizga, ularning ota-onalari, ustoz-murabbiylariga, milliy olimpiya terma jamoamizning barcha a'zolariga chin qalbimdan chuqr minnatdorlik bildiraman.

Siz, yoshlарimizga, mening aziz farzandlarimga qaratib aytmoqchiman: bo'sh kelmang, azizlarim, davr

bizniki, marra bizniki!

Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni, butun xalqimizni Mustaqillik kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga tinchlik-omonlik, baxtu saodat, xonadonlaringizga, el-yurtimizga fayzu baraka tilayman.

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o'zi qo'llasin, o'zi madadkor bo'lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo'lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

**Islom Karimov,**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**Havola:<http://uza.uz/uz/politics/o-zbekiston-respublikasi-davlat-mustaqilligining-25-yilligi--31-08-2016>**